

**ASALARICHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA JAHON
AMALIYOTLARINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI**

Qulmurotov Sohijjon Jumaniyozovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

e-mail: sohibkulmurotov@gmail.com tel: +998972792329

Axmadova Feruza Isroil qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi I – bosqich I-115-23 guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada asalarichilikning qadimiy tarixidan boshlab hozirgi kungacha istiqbolli taraqqiyoti, asal yetishtirishda jahon amaliyotlari jumladan Amerika, Yevropa, Afrika, Okeaniyaning ayrim mamlakatlari misolida ko‘rib chiqildi. Asal yetishtirishdagi jahon amaliyoti, uni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari, muammolari, yutuqlari muhokama qilindi. Shu bilan birga, mamlakat asalarichilik sohasida jahon amaliyotini samarali integratsiyalashuvini ta‘minlash maqsadida davlat tomonidan tartibga solish, infratuzilmani rivojlantirish va tashkil etilgan yashil bozorlarda o‘zaro axborot uzatishdagi to‘siqlarni yengib o‘tishi kerak bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *Asalarichilik, asalari uyasi, asalarichi, xoriy tajriba, asalni qayta ishlash.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрен перспективный прогресс пчеловодства с древней истории до наших дней, зарубежный опыт выращивания меда, в том числе на примере некоторых стран Америки, Европы, Африки, Океании. Обсужден зарубежный опыт выращивания меда, возможности его применения в Узбекистане, проблемы, достижения. При этом стране придется преодолевать барьеры государственного регулирования, развития инфраструктуры и взаимной передачи информации на устоявшихся зеленых рынках с целью*

обеспечения эффективной интеграции зарубежной практики в пчеловодческие кластеры.

Ключевые слова: *Пчеловодство, улей, пчеловод, зарубежный опыт, обработка меда.*

Abstract: *This article examined the promising progress of beekeeping from the ancient history of beekeeping to the present day, foreign experiments in the cultivation of honey, including on the example of some countries of America, Europe, Africa, Oceania. Foreign experience in the cultivation of honey, opportunities, problems, achievements of its use in Uzbekistan were discussed. At the same time, the country will have to overcome the barriers to state regulation, infrastructure development and mutual information transfer in organized green markets in order to ensure the effective integration of foreign practices into bee clusters.*

Key words: *Beekeeping, hive, beekeeper, foreign experience, honey processing.*

Kirish

Dunyo tarixida asalarichilik uzoq va boy tarixga ega hisoblanib, odamlarning asal va mum iste'mol qilishlari haqidagi eng qadimgi bitiklar 10 000 yil oldin g'or rasmlarida topilgan. Misrliklar taxminan 2400-2600 yil oldin asal yetishtirish bilan shug'ullanib, asalari uyalardagi asalni olish uchun olov va tutundan foydalanganlar. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida asalarichilikning zamonaviy shakli sun'iy asalari uyasi paydo bo'lishi bilan shakllana boshladi, bu asalarichilarga asalarilarni o'ldirmasdan asal yetishtirish imkoniyatini berdi. XIX asrda novatorlar va ixtirochilarning sohada sezilarli porlashi kuzatildi, ular uyalarni loyihalash va ishlab chiqarish, boshqarish va parvarish qilish, selektiv naslchilik orqali asalari turini yaxshilash, asal yetishtirish hamda uni sotishni takomillashtirishdi.

Asalarichilik tarixidagi eng nufuzli shaxslar qatoriga zamonaviy apiologiya va asalarichilikning otasi hisoblangan Yan Dzierjon va Amerika

asalarichilikning otasi sifatida tanilgan L.L.Langstrot alohida ajralib turadi. Langstrotning “Uya va asalari” nomli klassik kitobi 1853 yilda nashr etilgan va zamonaviy asalarichilik amaliyotiga katta ta’sir ko’rsatgan. XX asrning boshlarida Uolter T.Kelli bu sohaga muhim hissa qo’sha olgan zamonaviy asalarichilikning amerikalik peshqadamlaridan biri edi. 1865 yilda mayor Franchesko De Gruska markazdan qochma kuch yordamida asalari uyalaridan asal olish uchun oddiy mashinani ixtiro qildi, bu asal yig’ish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi va zamonaviy asal sanoatining rivojlanishiga turtki bo’ldi.

Bugungi kunda asalarichilik rivojlanishda davom etmoqda, tabiiy asalarichilikka qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda, shu bilan birga asalarilar asal to’plashi va yashashi uchun turli xil asalari quti uyaları ishlatilmoqda. Asalarilarning gullarni changlatishdagi ahamiyati, ularga kasallik va antropogen omillar tahdidi, asalarilarning ekotizimdagi o’rni bu barqaror asalarichilik amaliyotiga bo’lgan yuqori ehtiyojni chuqurroq tushunishga sabab bo’ladi (1-rasm).



1-rasm. Ishchi asalarilar

So’nggi yillarda barqaror iqtisodiy o’sishga ko’maklashish va asalarichilik tarmog’ining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy strategiyasi sifatida asalarichilik klasterlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuv turli manfaatdor tomonlarni masalan asalarichilar, ishchilar, tadqiqotchilar va siyosatchilarni hamkorlik qilish hamda ma’lum bir geografik

hududda sohada innovatsiyalar qilish maqsadida tomonlar integratsiyasiga asos bo'lib xizmat qiladi. Asalarichilik klasterlari har bir a'zosining kuchli tomonlaridan foydalangan holda mahsuldorlikni oshiradigan, mahsulot sifatini yaxshilaydigan lokal va global bozorga kirishni osonlashtiradigan hamkorlikni yaratishi mumkin. Potentsial imtiyozlarga qaramay O'zbekistonda asalarichilik klasterlarini joriy etish cheklanganligicha qolmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi asalarichilik klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish, boshqa mamlakatlardagi muvaffaqiyatli misollarga alohida e'tibor qaratishdan iborat. Ushbu ilg'or tajribalarni tahlil qilish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ushbu tadqiqot asosan siyosatchilar va sohaning manfaatdor tomonlariga O'zbekistonda asalarichilik sektorining barqaror o'sishiga yordam beruvchi amaliy tavsiyalar berishga yo'naltiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Asalarichilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy masalalari bo'yicha O'zbekistonlik olimlar tomonidan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, B.A. Qaxramonov, A.I. Isamuhamedov, U.S.H. Ballasov, S.S.H. Isamuhammedov, O.S. To'rayev kabi qator agrar iqtisodchi olimlarning erishilgan ilmiy natijalari e'tiborga molik.

Asalarichilik sohasini samarali tashkil etish, asal va asal mahsulotlarini yetishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha A.Nabiyev, V.Brovarskiy, Sh.Suyarqulov. O.To'rayev, N.Kraxotin, A.Isamuhamedov, N.Askarov, R.Pulatova, B.Qaxramonov, A.Chekalov kabi olimlar tadqiqot olib borgan. Xorijiy olimlardan A.Chepik, G.R.Mursalimova, R.A.Zaripov, A.K.Subayeva, Ye.Odinokova, S.Kolupayev kabilar ilmiy-tadqiqot izlanishlarini olib borgan.

Asosiy qism

Umumiy tushunchalar

Asalarichilik sohasini rivojlantirish jahon miqyosida ham, O'zbekiston sharoitida ham qishloq xo'jaligi va iqtisodiy jabhada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha jahon amaliyoti O'zbekistonda asalarichilik tarmog'ini rivojlantirish uchun kerakli hamda qimmatli

ma'lumotlarni beradi. Asalarilar oilalari yo'qolish darajasining nozik tomonlari, asalari oilasini yo'qolish xavfi omillari va turli xil asalari turlaridan hamda geografik kelib chiqishiga ko'ra asal va asal mahsulotlarini ajratib olish asalarichilik sohasini barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Asalari oilalarini yo'qolish darajasini baholash va asalarilar salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash metodologiyasini joriy etish orqali O'zbekiston asalarichilik sohasini mustahkamlashda samarali jahon amaliyoti O'zbekiston sharoitiga moslashtiriladi.

Argentinda asalni ajratib, farqlay olish maqsadida ishlatiladigan UV-spektroskopiya va kimyometrik tahlildan foydalanish asalarichilik klasterlarida sifat nazorati va mahsulotni farqiga borish uchun innovatsion yondashuvlarni taklif qiladi. Xorij tajribasidan olingan ko'nikmalarni O'zbekistonda asalarichilik klasterlarini rivojlantirish va qo'llashga integratsiyalash asalarichilik sohasida mahsuldorlikni oshirish, barqarorlik va iqtisodiy o'sishga yo'l ochib beradi.

Asalarichilik sohasini rivojlantirish haqidagi jahon amaliyoti tadqiqotida ravshan bayon qilinganidek, Argentina asal sanoati misolida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan, hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni ko'rib chiqish juda muhimdir. Turli manfaatdor tomonlar jumladan asalarichilar, eksport qiluvchi kompaniyalar, texnik va tadqiqotchilar o'rtasidagi strategik ittifoq jahon bozorlariga chiqayotgan asal sifati va sofligini ta'minlash borasida muvofiqlashtirilgan chora - tadbirlar muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, G'arbiy Nil mintaqasida (Enzama va boshqalar) kuzatilgan hamda amalga oshirilgan operativ strategiya asalarichilik korxonalarining omon qolishi bilan mahalliy iqtisodiyot rivojlanishini yaqqol isbotlab beradi. Asal va asal mahsulotlari qiymati zanjiridagi asosiy ishtirokchilarning faoliyati va hissalarini o'rganish orqali O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda potentsial muammolarni hal qilish maqsadida chuqur tahlil uchun qimmatli ma'lumotlar to'planishi kerak. Turli davlatlarda asalarichilik amaliyotini konseptsiyalash va

nazariyalashtirish orqali olingan bilimlar O‘zbekistonda asalarichilik sohasini yaratish va rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va jamiyatlararo imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha strategiyalar yaratilishiga hamda sohani yaxshilanishiga olib keladi.

Yashil qishloq xo‘jaligi bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tabiatga, ekologiyaga zarar yetkazmagan holatda yetishtirishni o‘z ichiga oladigan iqtisodiyot tarmog‘i hisoblanadi. O‘zbekistonda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha jahon amaliyotini qo‘llashni o‘rganishda yashil qishloq xo‘jaligining jahon tendensiyalari va amaliyotini hisobga olish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yashil qishloq xo‘jaligi keng tarqalgan va o‘sib borayotgan soha bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab millionlab fermerlar tomonidan millionlab gektar yerlar ekologik qoidalarga amal qilingan holatda boshqariladi. Shu kabi jahon amaliyoti asalarichilik sohasini rivojlantirish tamoyillariga mos keladigan barqaror va ekologik toza qishloq xo‘jaligi qanchalik muhimligini ta’kidlaydi. Yashil qishloq xo‘jaligi bilan faol mamlakatlarning bilim va tajribasini mamalakat hududlariga moslashtirgan holda, O‘zbekiston unumli asalarichilik sohasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va ilg‘or tajribalardan foydalanadi. G‘oyalar va metodologiyalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi manzarasini yaxshilashi hamda yashil qishloq xo‘jaligiga asoslangan asalarichilik tamoyillarini rivojlanishiga zamin yaratib, global masshtabda asalarichilik sanoatining bozor dinamikasini ijobiy o‘zgarishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda asalarichilik klasterini rivojlantirishda xorij tajribasini joriy etish muammolari va imkoniyatlari

O‘zbekistonda asalarichilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha jahon amaliyotini qo‘llashda bir qator muammo va imkoniyatlar yuzaga keladi. Yashil qishloq xo‘jaligining global tendensiyalari haqidagi ma’lumotlardan foydalanish, ayniqsa Yevropa va Okeaniya kabi mintaqalarda, barqaror asalarichilik amaliyoti uchun qimmatli manba beradi. Butun dunyoda ekologik himoyalangan yerlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarning o‘shishi

shundan dalolat beradiki, asalarichilik sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarni qabul qilish atrof muhitni boshqarish va bozor raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ekologik toza asal mahsulotlariga talabning jahon bozorida o'sib borayotgani bozor tahlilida shuni ko'rsatadiki, barqaror va tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni oshishi, O'zbekistonda ekologik toza asalarichilik tarmog'ini rivojlantirishni va jahon bozorida raqobatbardosh asal va asal mahsulotlarini ishlab chiqarishni anglatadi. Shu bilan birga, mamlakat asalarichilik sohasiga jahon amaliyotini samarali integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tartibga solish, infratuzilmani rivojlantirish va tashkil etilgan yashil bozorlarda o'zaro axborot uzatishdagi to'siqlarni yengib o'tishi kerak bo'ladi. Ushbu muammolarni sinchiklab hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish orqali O'zbekiston asalarichilik sanoatida innovatsiya, taraqqiyot, iqtisodiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlashda xorijiy tajribalardan foydalanishi lozim bo'ladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, asalarichilik sohasini rivojlantirish bo'yicha jahon amaliyoti O'zbekistonda asalarichilik tarmog'ining barqarorligi va mahsuldorligini oshirishda foydalanilib, sohadagi zamonaviy hamda qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Germaniya, Vengriya va Polsha kabi mamlakatlarning muvaffaqiyatli modellarini tahlil qilish orqali O'zbekiston klasterini shakllantirish, texnologiyalarni o'zlashtirish va qiymat zanjirini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar mamlakat sharoitiga moslashtiriladi. Asalarichilik klasterlarini yaratish asalarichilar, tadqiqotchilar va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa bilim almashish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga olib keladi. Bundan tashqari, zamonaviy asalari uyalari va raqamli monitoring tizimlari, sun'iy intellekt kabi innovatsion texnologiyalarni joriy etish asalarilar salomatligi, asal va asal mahsulotlarini sifat jihatdan oshirish imkonini beradi. Ushbu xorijiy tajribalarni asalarichilik tarmog'iga integratsiyalash orqali O'zbekiston jahon asal bozorida

asosiy ishtirokchi maqomiga erishishi, shu bilan birga iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunga muvofiq ushbu sohani rivojlantirish, mintaqa iqtisodiyoti samaradorligini oshirish maqsadida asalarichilik sohada quyidagi xorij tajribalarini amaliyotda qo'llashni maqsadga muvofiq deb topdik:

✓ asal yetishtirish uchun moddiy vositalarni birlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish maqsadida mavsumiy oilaviy korxonalar tashkil etish va uni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash (Xitoy amaliyoti);

✓ asalarichilik ilm-faniga moliyaviy resurslar ajratish, hududlarda asalarichilik stansiyalarni tashkil etish (Xitoy amaliyoti);

✓ “Asalarichilik to'g'risida”gi qonunni qabul qilish (Ukraina amaliyoti);

✓ jismoniy va yuridik shaxslarga asalarichilik xo'jaliklariga qonun bilan belgilangan tartibda yer maydonlari ajratish (Ukraina amaliyoti);

✓ asalarichilik uyushmasi tasviyasiga asosan asalari oilalari uchun subsidiyalash tizimini joriy etish (Turkiya amaliyoti);

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dini, Cecilia Beatriz (compiladora), García, Norberto (compilador), "Manual of good beekeeping practices in artificial feeding of bees: a contribution to the quality of Argentine honey.", 2023

2. Enzama, W. (Wilson), "Quest for economic development in agrarian localities", 2008

3. Qulmurotov S.J., Iskandarov S.U. “ЗНАЧЕНИЕ ПЧЕЛОВОДСТВА В СЕЛСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ РЕГИОНА” International journal of scientific researchers. Germaniya – 2024.

4. Qulmurotov S.J., Iskandarov S.U. “IMPORTANCE OF THE BEEKEEPING SECTOR IN REGIONAL AGRICULTURE” American journal of Business Management, Economics and Banking. AQSH – 2024.

5. Isamuhamedov A.I. Nikadamboev X.K. “Asalarichilikni rivojlantirish asoslari”. Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 2013
6. <http://galwaybeekeepers.com/history-of-beekeeping/>
7. <https://www.powerblanket.com/blog/the-evolution-of-beekeeping/>
8. <https://www.mrwasp.co.uk/the-history-of-beekeeping-and-bee-control>